I. KORXONALAR VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI

Korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registri ma‘lumotlariga ko‘ra, 2024- yil 1- yanvar holatiga ro‘yxatga olingan yuridik shaxslar soni *(fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz)* 28 521 taga yetdi, shundan faoliyat ko‘rsatayotganlari soni 21 880 tani yoki jami ro‘yxatga olingan yuridik shaxslarning 76,7 foizni tashkil qildi.

Ro‘yxatdan o‘tgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Navoiy shahar (22,4 %), Karmana (15,9 %), Qiziltepa (13,0 %) va Xatirchi (11,4 %) tumanlari hissalariga to‘g‘ri keladi.

Ro‘yxatga olingan va faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo‘yicha taqsimlanishi
(2024- yil 1- yanvar holatiga)

	Ro‘yxatga olingan		***Faoliyat ko‘rsatayotgan***	
	birlik	***jamiga nisbatan, % da***	***birlik***	***jamiga nisbatan, % da***
Jami	**28 521**	**100,0**	**21 880**	**100,0**
Navoiy sh.	6 392	22,4	4 921	22,5
Zarafshon sh.	1 912	6,7	1 416	6,5
G‘ozg‘on sh.	463	1,6	427	2,0
Karmana t.	4 526	15,9	3 270	14,9
Konimex t.	1 214	4,3	1 013	4,6
Qiziltepa t.	3 720	13,0	2 917	13,3
Navbahor t.	3 061	10,7	2 252	10,3
Nurota t.	1 995	7,0	1 559	7,1
Tomdi t.	846	3,0	661	3,0
Uchquduq t.	1 132	4,0	872	4,0
Xatirchi t.	3 260	11,4	2 572	11,8

Ro‘yxatdan o‘tgan sub‘ektlarning hududlar bo‘yicha ulushi, (% da)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ro‘yxatga olingan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi savdo (jami ro‘yxatga olingan yuridik shaxslarning savdo (35,5 %), sanoat (15,4 %), qurilish (6,8 %), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi (12,2 %) va boshqa sohalar (30,2 %) hissalariga to‘g‘ri keldi.

Ro‘yxatga olingan va faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi
(2024- yil 1- yanvar holatiga)

	Ro‘yxatga olingan		***Faoliyat ko‘rsatayotgan***	
	birlik	***jamiga nisbatan, % da***	***birlik***	***jamiga nisbatan, % da***
Jami	**28 521**	**100,0**	**21 880**	**100,0**
shu jumladan:				
qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	3 470	12,2	2 471	11,3
sanoat	4 378	15,4	3 094	14,1
qurilish	1 936	6,8	1 390	6,4
savdo	10 111	35,5	8 074	36,9
tashish va saqlash	931	3,3	769	3,5
yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	1 735	6,1	1 255	5,7
axborot va aloqa	368	1,3	285	1,3
sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish	406	1,4	356	1,6
boshqa turlari	5 186	18,2	4 186	19,1

Faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ulushi
(2024- yil 1- yanvar holatiga)

11,3 %

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

14,1 %

Sanoat

6,4 %

Qurilish

36,9 %

Savdo

3,5 %

Tashish va saqlash

5,7 %

Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar

1,3 %

Axborot va aloqa

1,6%

Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish

19,2 %

Boshqa turlar

Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko‘rsatayotgan sub‘ektlarning ulushi 76,7 foizni, shu bilan birga jami korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko‘rsatmayotganlarning ulushi 23,3 foizni tashkil etganligini ko‘rsatmoqda.

Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko‘rsatayotganlar va faoliyatsizlarning ulushi, % da



2024- yil 1- yanvar holatiga 19 635 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko‘rsatayotgan bo‘lib, shundan mas‘uliyati cheklangan jamiyatlar 11 463 ta, xususiy korxonalar 4 602 ta, oilaviy korxonalar – 3 418 ta, aksiyadorlik jamiyatlari – 16 ta, unitar korxona 25 tani va 111 tani boshqa tijorat korxonalari tashkil etadi.

Faoliyat ko‘rsatayotgan yuridik shaxslar xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlarning tashkiliy- huquqiy shakllari bo‘yicha taqsimlanishi, *birlikda*



2023- yil yanvar- dekabr oylarida jami 3 910 ta yangi korxonalar va tashkilotlar ro‘yxatga olingan bo‘lib, 2022- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 87,6 foizni tashkil etdi, yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Navoiy shahri (709 ta), Karmana (595 ta), Qiziltepa (455 ta), Xatirchi (433 ta) tumanlariga, eng kami esa Tomdi (179 ta) tumani va G‘ozg‘on shahar (102 ta) hissasiga to‘g‘ri keldi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi savdoda 36,4 foiz, sanoatda 17,5 foiz, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 14,3 foiz, qurilishda 3,8 foiz, tashish va saqlashda 3,7 foizni tashkil etdi.

2024- yil 1- yanvar holatiga viloyatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub‘ektlarining soni 19 539 tani tashkil etib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 14,5 foizga kamaydi.

Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub‘ektlarining asosiy qismi, ya‘ni 4 285 tasi (jami sub‘ektlarning 21,9 %) Navoiy shahri, 2 998 tasi (15,3 %) Karmana, 2 673 tasi (13,7 %) Qiziltepa, 2 275 tasi (11,6 %) Xatirchi hamda 2 071 tasi (10,6 %) Navbahor tumanlari hissalariga to‘g‘ri keladi.

Eng kam faoliyat ko‘rsatayotganlar esa 576 tasi (2,9 %) Tomdi, 873 tasi (4,5 %) Konimex tumanlari, 392 tasi (2,0 %) G‘ozg‘on shahri hissasiga to‘g‘ri keladi.

Ro‘yxatdan o‘tgan kichik biznes sub‘ektlari
(fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz, birlikda)
(2024- yil 1- yanvar holatiga)

	Jami	*Faoliyat yuritayotgan*	*Faoliyat yuritmayotgan*	*2023- yil yanvar- dekabr oylarida yangidan tashkil etilgan*	*2023- yil yanvar- dekabr oylarida faoliyati tugatilgan*	*1000 kishiga to‘g‘ri keladiga KB sub‘ektlari*
Jami	**26 014**	**19 539**	**6 475**	**3 796**	**1 848**	**18,2**
Navoiy sh.	5 679	4 285	1 394	661	248	26,6
Zarafshon sh.	1 766	1 279	487	268	264	14,5
G‘ozg‘on sh.	427	392	35	100	19	42,2
Karmana t.	4 234	2 998	1 236	575	170	21,6
Konimex t.	1 070	873	197	236	151	23,3
Qiziltepa t.	3 465	2 673	792	447	195	16,5
Navbahor t.	2 865	2 071	794	412	130	17,1
Nurota t.	1 799	1 369	430	243	91	15,3
Tomdi t.	755	576	179	175	62	37,2
Uchquduq t.	1 003	748	255	251	216	19,0
Xatirchi t.	2 951	2 275	676	428	302	10,7

Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub‘ektlarining hududlar bo‘yicha soni

	2023- yil 1- yanvar holatiga		*2024- yil 1- yanvar holatiga*	
	birlik	*jamiga nisbatan, % da*	*birlik*	*jamiga nisbatan, % da*
Jami	**22 844**	**100,0**	**19 539**	**100,0**
Navoiy sh.	4 954	21,7	4 285	21,9
Zarafshon sh.	1 663	7,3	1 279	6,5
G‘ozg‘on sh.	318	1,4	392	2,0
Konimex t.	904	4,0	873	4,5

davomi

	2023- yil 1- yanvar holatiga		2024- yil 1- yanvar holatiga	
	birlik	jamiga nisbatan, % da	birlik	jamiga nisbatan, % da
Qiziltepa t.	3 071	13,4	2 673	13,7
Navbahor t.	2 444	10,7	2 071	10,6
Karmana t.	3 671	16,1	2 998	15,3
Nurota t.	1 581	6,9	1 369	7,0
Tomdi t.	573	2,5	576	2,9
Uchquduq t.	957	4,2	748	3,8
Xatirchi t.	2 708	11,9	2 275	11,6

Faoliyat ko‘rsatayotgan jami 19 539 ta kichik tadbirkorlik sub‘ektlarining 8 057 tasi (41,2 %) – savdoda, 3 068 tasi (15,7 %) - sanoatda, 2 437 tasi (12,5 %) - qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida, 1 372 tasi (7,0 %) - qurilishda, 1 250 tasi (6,4 %) - yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida, 761 tasi (3,9 %) - tashish va saqlashda, 294 tasi (1,5 %) - sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishda, 277 tasi (1,4 %) - axborot va aloqa sohasida, shuningdek 2 023 tasi (10,4 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to‘g‘ri keldi.

Ro‘yxatdan o‘tgan kichik tadbirkorlik sub‘ektlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha, 1- yanvar holatiga ko‘ra) birlikda



2024- yil 1- yanvar holatiga Navoiy viloyatida jami ro‘yxatdan o‘tgan kichik tadbirkorlik sub‘ektlarining umumiy sonida faoliyat ko‘rsatmayotganlarning ulushi Navoiy shahrida 5,4 foizni (1 394 ta) , Karmana tumanda 4,8 foizni (1 236 ta), Navbahor 3,1 foizni (794 ta), Xatirchi 2,6 foizni (676 ta), Konimex 0,8 foizni (197 ta) va Tomdi tumanida 0,7 foizni (179 ta) tashkil qilgan.

Hisobot davrida 1 848 ta kichik tadbirkorlik sub‘ektlarining faoliyati tugatilgan bo‘lib, ulardan 739 tasi savdo (40,0 %), 301 tasi sanoat (16,3 %), 102 tasi qurilish (5,5 %) hamda 222 tasi qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi (12,0 %) va boshqalar sohalariga (26,2%) to‘g‘ri keladi.

2024- yil 1- yanvar holatiga faoliyat ko‘rsatayotgan xorij kapital ishtirokidagi korxonalar soni 215 tani tashkil etdi. Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalardan 98 tasi qo‘shma korxonalar, 117 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni
(2024- yil 1- yanvar holatiga,birlikda)



Faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo‘shma korxonalar va xorijiy korxonalarning soni, birlikda

	Jami	*shundan:*	
		Qo‘shma korxona	*Xorijiy korxona*
Jami	**215**	**98**	**117**
Navoiy sh.	66	36	30
Zarafshon sh.	15	5	10
G‘ozg‘on sh.	5	3	2
Konimex t.	12	5	7
Qiziltepa t.	12	6	6
Navbahor t.	9	4	5

davomi

	Jami	*shundan:*	
		Qo‘shma korxona	*Xorijiy korxona*
Karmana t.	59	22	37
Nurota t.	12	5	7
Tomdi t.	8	6	2
Uchquduq t.	5	2	3
Xatirchi t.	12	4	8

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Navoiy shahri 66 ta (30,7 %) va Karmana 59 ta (27,4 %) tumani hissalariga to‘g‘ri keladi.

Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar G‘ozg‘on shahriga 5 ta (2,3 %), Uchquduq tumaniga 5 ta (2,5 %), Tomdi tumaniga 8 ta (3,7 %), Konimex tumaniga 12 ta (5,6 %) va Navbahor tumaniga 9 tadan (4,2 %) to‘g‘ri keldi.

Faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning hududlar bo‘yicha soni va ulushi *(2024- yil 1- yanvar holatiga)*

	birlik	*jamiga nisbatan, ulushi % da*
Jami	**215**	**100,0**
Navoiy sh.	66	30,7
Zarafshon sh.	15	7,0
G‘ozg‘on sh.	5	2,3
Konimex t.	12	5,6
Qiziltepa t.	12	5,6
Navbahor t.	9	4,2
Karmana t.	59	27,4
Nurota t.	12	5,6
Tomdi t.	8	3,7
Uchquduq t.	5	2,3
Xatirchi t.	12	5,6

Faoliyat ko‘rsatayotgan 215 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha olib qaraydigan bo‘lsak, 109 tasi (50,7 %) sanoat, 44 tasi (20,5 %) savdo, 16 tasi (7,4 %) qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida, 15 tasi (7,0 %) qurilishda, 3 tasi (1,4 %) tashish va saqlash, 4 tasi (1,9 %) sog‘likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish, 3 tasi (1,4 %) axborot va aloqa, 5 tasi (2,3 %) yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarda, 16 tasi (7,4 %) boshqa faoliyat turlari hissalariga to‘g‘ri keladi.

Faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha soni va ulushi
(2024- yil 1- yanvar holatiga)

	birlik	***Jamiga nisbatan, % da***
Jami	**215**	**100,0**
shu jumladan:		
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	16	7,4
Sanoat	109	50,7
Qurilish	15	7,0
Savdo	44	20,5
Tashish va saqlash	3	1,4
Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	5	2,3
Axborot va aloqa	3	1,4
Sog‘likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish	4	1,9
boshqa turlari	16	7,4

2023- yil yanvar- dekabr oyida xorijiy kapital ishtirokidagi ro‘yxatdan o‘tgan yangi korxonalarning soni 46 tani tashkil qilgan. Bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 7 taga oshgan.

Bunda, Rossiya Federatsiyasi 8 ta, Xitoy Xalq Respublikasi 6 ta, Hindiston Respublikasi, Turkiya, Janubiy Koreya Respublikasilarida 4 tadan , Eron, Qozog`iston Respublikasilarida 3 tadan, Avstraliya, Turkmaniston Respublikasilarida 2 ta, Birlashgan Arab Amirligi, Amerika Qo'shma Shtatlari, Belorussiya Respublikasi, Niderlandiya Qirolligi va boshqa davlatlarda 1 tadan to‘g‘ri keladi.

46 ta yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Navoiy shahri (20 ta), Karmana tumani (8 ta), Konimex, Nurota tumani (4 ta), Xatirchi tumani (3 ta), Zarafshon, G‘ozg‘on shahri, Navbahor tumanlarida (2 ta) hamda Uchquduq tumaniga (1 ta) dan to‘g‘ri keladi.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning hududlar kesimidagi soni va ulushi

	birlik	*jamiga nisbatan, % da*
Jami	**46**	**100,0**
Navoiy sh.	20	43,5
Zarafshon sh.	2	4,3
G‘ozg‘on sh.	2	4,3
Konimex t.	4	8,7
Qiziltepa t.	-	0,0
Navbahor t.	2	4,3
Karmana t.	8	17,4
Nurota t.	4	8,7
Tomdi t.	-	0,0
Uchquduq t.	1	2,2
Xatirchi t.	3	6,5

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, asosan sanoatda 20 ta, savdoda 16 ta, qishloq xo‘jaligida 3 ta, yashash va ovqatlanish 2 ta, tashish va saqlash, sog‘liqni saqlash va ishtimoiy xizmatda 1 tadan va boshqalar 2 tani tashkil qilmoqda.

2024- yil 1- yanvar holatiga 105 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar faoliyat ko‘rsatmayotgan korxonalar hisoblanib, shundan Navoiy shahri (41 ta), Karmana tumani (28 ta), Nurota (11 ta), Zarafshon shahri (6 ta), Uchquduq, Qiziltepa, Navbahor, Xatirchi tumanida (4 tadan), Konimex tumanida (2 ta) va Tomdi tumani (1 ta) hissasiga to‘g‘ri keldi.

Oilaviy korxonalar. Yuridik shaxs sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tgan oilaviy korxonalar soni 2024- yil 1- yanvar holatiga 4 511 tani tashkil etib, ulardan 3 418 tasi yoki 75,8 foizi faoliyat yuritmoqda.

2024- yil 1- yanvar holatiga faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalar soni o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 17,8 foizga yoki 739 taga kamaydi.